

**JANUBIY KEMACHIDAGI QAZILMALARNI SUV MIQDORINI  
ANIQLASH UCHUN RATSIONAL O’RGANISH ISHLARINI  
AMALGA OSHIRISH**

*Sultonov Asqarbek Davronbek o'g'li  
Toshkent davlat texnika universiteti  
2- kurs magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, Janubiy Kemachi koni haqida va neft-gaz sanoatida konlardan qazib olinayotgan tabbiy boyliklar tarkibida suv miqdorini aniqlashnng ratsional olib boriluvchi amaliyotlar haqida so'z yurutilgan.

**Kalit so'zlar:** Janubiy Kemachi, qazilma, ratsional amaliyotlar, suv miqdori, burg'ulash, neft, gaz, minerallar.

**Annotation:** article talks about the South Kemachi field and the rational practices of determining the amount of water in the mineral resources extracted from the fields in the oil and gas industry.

**Key words:** Southern Kemachi, fossil, rational practices, water quantity, drilling, oil, gas, minerals.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о месторождении Южный Кемачи и рациональных практиках определения количества воды в полезных ископаемых, извлекаемых из месторождений в нефтегазовой отрасли.

**Ключевые слова:** Южный Кемачи, ископаемое, рациональные приемы, количество воды, бурение, нефть, газ, полезные ископаемые.

Neft gaz sanoatlarida burg'ulash jarayonida doimiy suvga duch kelinadi, va suv ham qazilma bilan doimiy aloqada bo'lganligi uchun ham qazilma miqdorida qanchadir miqdorda suv aniqlanadi. Suvni aniqlash davrida undagi minerallar muhim ahamiyat kasb etadi. Minerallar esa suv miqdoridagi asosiy omillardir. Quyida keltirib o'tiladigan matnlarda, Janubiy Kemachi konlarida qazilma amaliyotlari, uning tarixi, kelajagi, ularda uchrovchi suv miqdorlari va shunga o'xshash savollarga javob berib o'tilgan.

Bu tarkibdagi suvlarni ba'zan tabiiy oqava suvlari ham deb atashadi. Tarkibdagi bu suyuqlikni miqdorini aniqlash uchun ratsional amaliyotlarni amalga oshirish lozim. Biz bilgan, neft-gaz qazib chiqaruvchi konlarning biri Janubiy Kemachi koni hisoblanadi. Janubiy kemachi neftgaz-kondensat koni - Buxoro viloyatidagi kon. Qorovulbozor temir yo'l stansiyasidan 35 km shimoli-sharqda. 1979-yilda ochilgan, 1993-yilda foydalanishga topshirilgan. Kon relyefi tekislikdan iborat bo'lib, shimoli-

sharqdan janubi-g‘arb tomonga qiyalangan, yer yuzasi eol qumlari bilan qoplangan. 236–274 m balandlikda joylashgan.



Kon maydoni Chorjo‘y tektonik pog‘onasidagi Ispanlichandir ko‘tarilmasining sharqiy qismidir. Strukturasi Kemachi-Zekri braxiantiklina-liningjan. qismida mujassamlashgan, 1970-yil seysmik razvedka ishlari natijasida aniklangan. O‘lchami 25x 15 km. Keyinchalik qazilgan parametrik quduq ham sanoat miqyosida neft va gaz borligini tasdiqladi. 1979—1983-yillarda qaeilgan jami 22 quduq yura, bo‘r, paleogen va to‘rtlamchi davr jinslarini ochgan. Karbonat jinsli kollektorqatlamning umumiy qalinligi 336–407 m bo‘lib, u gorizontlarga ajratilgan.

Sanoat miqyosidagi neft-gazlilik yuqori yura davrining karbonat yotqiziqlari bilan bog‘liq. 15-R gorizontdan (2186–2308 m chuqurlikda ochilgan) olingan gazning debiti 452—588 ming m’/sutka. Gaz-neft tutash yuza “—2061 m” satxda belgilangan. Uyum massivli, o‘lchami 11,5x4,1 km, balandligi 130 m. G‘ovak-lilik koeffitsiyenti 0,16; gazga to‘yinganlik koeffitsiyenti 0,78. Gaz quruq, metan miqdori 78,96—92,23%, azot kam (5,28%), karbonat kislotali (3,16), kam oltingugurtli (0,03%). Qatlam gazida etan 44 g/m<sup>1</sup>, propan 15 g/m<sup>1</sup>, izobutan 3 g/m<sup>1</sup>, butan 4g/m<sup>1</sup> geliy 0,003% Neft uyumi 15-NR va 15-R gori-zontlari bilan bog‘liq bo‘lib, 2309—2347 m chuqurlikda ochilgan. Uyum mas-sivli, o‘lchami 11,5x3,9 km, balandligi 10,0 m. Suvneft tutash yuza “—2071 m” satxda belgilangan. G‘ovaklilik koef-fitsiyenti 0,15, neftga to‘yinganlik — 0,69. Neft zichligi 0,884 g/sm<sup>1</sup>. Neft bera olishlik koeffitsiyenti — 0,18. Neft o‘rtacha va og‘ir, oltingu-gurtli, smolali, parafinli, benzin fraksiyasi kam. Neft tarkibida (%da); oltingugurt — 1,98, asfaltenlar — 1,77, smola — 9,6, parafin — 5,75, benzin fraksiyalari — 8,56.

Kondensatlar o‘rtacha va og‘ir, zichligi 0,774 g/sm<sup>1</sup>, oltingugurtli, 300° gacha 90—95% fraksiyalar qaynaydi. Ulardan 75% benzin fraksiyalariga to‘g‘ri keladi. Benzin fraksiyalarning kerosin fraksiyalarga nisbatan ajralishi 2,5 marotaba ko‘p. Kondensatlardagi metan uglevodorodlarining miq-dori 44,4—54,2%. Barqaror kondeneatning gazdagagi miqdori 43 g/m<sup>1</sup>.

Yura davri yotqiziqlaridagi qatlam suvlari xlorid-kaltsiy tipli, metamorflashgan namakoblardan iborat. Suv zichligi 1,07—1,08 g/sm<sup>1</sup>, mine-rallashganligi 90—100 g/l. Suv tarkibida sanoat miqyosidagi yod (o‘rtacha 54,0 mg/l) va brom (o‘rtacha 400,0 mg/l) uchraydi. Shuningdek, sanoat miqyosida to‘plangan litiy, rubidiy, stronsiy

va seziy elementlari mavjud. Janubiy kemachi neftgaz-kondensat koni koni neft va gaz zaxirasiga ko‘ra o‘rtacha yiriklikdagi konlar toifasiga kiradi.

Neft konlaridagi suvlar — neftli gori-zontlardagi yer osti suvlari; neft va unda erigan gaz bilan bevosita aloqada bo‘ladi. Neft qatlamlarida va neft uyumlariga nisbatan joylashishiga qarab quyidagi Neft suvlari farq qilinadi: chekka (konturli) suvlar — neft uyumidan quyida joylashgan; ostki (to‘sak) suvlar — qalqib turgan neft uyumining tagida joylashgan; ustki suvlar — neftli katlamining ustida joylashgan; bog‘langan suvlar — g‘ovaklar yuzasini o‘rab oluvchi neft qatlamida mayda kapillyar naychalarni to‘ldiruvchi suv; sun’iy kiritilgan suv — neft uyumlarini chiqarib olishda bosimni zarur darajada saqlab turish uchun kiritiladi. Neft suvlarining geokimyoviy tarkibi mahsuldor gorizont va uyum tarkibining litologik xususiyatlari bilan bog‘liq. Neft uyumlarining chekka Neft suvlarida organik kislotalar, benzol, fenol, og‘ir karbonsuvlarning konsentratsiyasi yuqori bo‘ladi. Gaz uyumlaridagi suvlarda, odatda, organik qo‘sishimchalar kam. Ko‘pincha neft suvlarining tarkibi katta maydonlarda deyarli o‘zgarmaydi. Neft uyumlari bilan bevosita tutashgan suvlar (chekka va ostki)ning minerallashuvi (200 g/l gacha va undan ziyod), gazga to‘yinganligi, metan va benzol, ammoniyning miqdori o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Gidrokarbonatnatriyli Neft suvlari esa kam (10 g/l gacha) minerallashgan. Neft suvlarini o‘rganish neftni qidirish, razvedka qilish va kondan chikarib olishda ahamiyati katta.

Ko‘pincha Neft suvlari shifobaxsh mineral suv sifatida yoki undan yod, brom, bor, radiy, bariy, stronsiy va boshqa olishda foydalaniladi. Neft bilan birga chiqqa-digan Neft suvlari qattiq noorganik tuzlar hosil kilishi sababli neft qazib olishni murakkablashtiradi. Buning oldini olish uchun Neft suvlari tuzsizlantiriladi yoki neft suvsizlantiriladi.

### **Xulosa.**

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, Janubiy Kemachi koni ham keng sanoatlashgan kon hisoblangani bois u yerdagi amalga oshiriluvchi jarayonlar doimiy yangi texnologiyalarda bajariladi. Bizning davlatda har qanday tabiiy boyliklarga muhim va jiddiy e’tibor qaratiladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek suvning miqdorini aniqlash undagi mineral moddalarga ham bog‘liq. Suvning kondagi, burg’ulashdagi xolatlarini o‘rganish orqali to‘g’ri ratsional xulosaga kelish mumkin.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. В.И.Мурин, Н.Н.Кисленко, Ю.В.Сурков. Переработка природного газа и конденсата. 2002 год ст.514
2. W.Strauss Industrial gas cleaning. 1981 year page 309

3. Ю.А.Чумаков Газодинамический расчет центробежных компрессоров транспортных, газотурбинных и комбинированных двигателей. Москва 2009 год ст.76
4. О.Н.Емин, В.Н.Карасев, Ю.А.Ржавин Выбор параметров и газодинамический расчет компрессоров. 2003 год ст.146
5. А.Г.Аншиц, Е.Н.Воскресенская Окислительная конденсация метана – новый процесс переработки природного газа. 1999 год ст.146
6. Технологический регламент
7. Internet. [www.instrumentik.ru](http://www.instrumentik.ru), [www.kompressor-centr.ru](http://www.kompressor-centr.ru), [www.dissercat.com](http://www.dissercat.com), [www.oilforum.ru](http://www.oilforum.ru), [www.master-oil.com](http://www.master-oil.com).